Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA’MINLASH SHAROITIDA FAN, PEDAGOGIKA, TA’LIM VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY JIHATLARI

Ismoilova Dilnavo Qahramon qizi
Chirchiq davlat pedogogika universiteti talabasi
Sa’dullayeva Mahfuza Husenovna
Chirchiq davlat pedogogika universitet
sadullaevamahfuza5@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va barqaror rivojlantirish jarayonida fan, pedagogika, ta’lim va innovatsiyalar muhim o‘rin egallaydi.Ushbu mavzuda iqtisodiy taraqqiyotning ilmiy asoslangan strategiyalarini ishlab chiqish, yuqori malaka mutaxassislar tayyorlash va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, fan va texnologiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo‘llanishi, ta’lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali barqaror rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish ta’kidlanadi. Shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim sifatini oshirish uchun ilg‘or metodlarni qo‘llash, yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash muhim ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Modernizatsiya, barqaror rivojlanish, fan, pedagogika, ta’lim, innovatsiyalar, kadrlar tayyorlash.

Kirish. Globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida davlatlarning iqtisodiy muvaffaqiyati zamonaviy bilim, fan, texnika va innovatsiyalarni samarali qo‘llashga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish masalalari mamlakat uchun dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonda fan, pedagogika, ta’lim va innovatsiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik iqtisodiy o‘sishning poydevorini tashkil qiladi.

Fan va texnologiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarini samarali boshqarish, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Innovatsiyalar esa resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va yangi yondashuvlarni joriy qilish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, pedagogika va ta’lim sohasi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, yosh avlodga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish orqali bu jarayonning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda iqtisodiyot va ta’lim o‘rtasidagi integratsiya jarayonini kuchaytirish va fan-innovatsiya yutuqlarini real sektorlarga tatbiq etish orqali iqtisodiy o‘sishning yangi modellarini shakllantirish zarurati dolzarb bo‘lib turibdi. Shu bilan birga, global miqyosda raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish va innovatsion infratuzilmani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va barqaror rivojlantirishning ilmiy, ta’limiy va innovatsion asoslari hamda bu jarayonning amaliy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shu asosda mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Xulosa. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va barqaror rivojlantirish jarayonida fan, pedagogika, ta’lim va innovatsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu sohalar o‘zaro uyg‘unlikda ishlagan taqdirdagina mamlakatning raqobatbardoshligi va iqtisodiy barqarorligi ta’minlanadi.

Fan va innovatsiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlasa, ta’lim va pedagogika sohalari yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash orqali iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Ismoilova Dilnavo Qahramon qizi (2024). O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va barqaror rivojlantirishni ta’minlash sharoitida fan, pedagogika, ta’lim va innovatsiyalarning asosiy jihatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1009

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or metodikalarni amaliyotga joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhim asos yaratadi.

Shu bilan birga, barqaror rivojlanish uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish zarurati dolzarb masalalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlat tomonidan ushbu yo‘nalishlarga e’tibor qaratilishi iqtisodiyotning uzoq muddatli o‘sishi va aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Qisqa qilib aytganda fan, ta’lim va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv mamlakatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish va barqaror iqtisodiyotni ta’minlashning asosiy vositasidir. Bu jarayonda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi va tizimli harakatlari muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Foydalangan Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2024.
2. Karimov, I. A. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li va bozor iqtisodiyotiga o‘tish modeli. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
3. “O‘zbekiston Respublikasi 2022-2026 yillarda rivojlanish strategiyasi” davlat dasturi. – Toshkent, 2022.
4. Umarov, X., & Xasanov, B. Barqaror rivojlanishning ilmiy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
5. World Bank Group. Innovations for Economic Growth: Global Best Practices and Lessons for Uzbekistan. – Washington, 2021.

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STATISTIK TADQIQOTLARNING AHAMIYATI

K.R.Atabayeva
Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida statistik tadqiqotlarning ahamiyati yoritilgan. Statistik ma’lumotlar orqali iqtisodiyotning turli jabhalarini tahlil qilish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va iqtisodiy siyosatni shakllantirish muhim vazifalardir. Tadqiqotda statistik usullar va ularning iqtisodiy tahlilda qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Maqola iqtisodiy statistikaga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligini oshirishda statistik tadqiqotlarning rolini tushuntiradi.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, statistik tadqiqot, tahlil usullari, iqtisodiy siyosat.

Kirish. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida statistik tadqiqotlarning o‘rni muhimdir. Iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini o‘lchash, baholash hamda tahlil qilishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi iqtisodiy siyosatning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Hozirgi davrda iqtisodiy masalalarni aniqlash va ularga yechim topishning asosiy vositalaridan biri statistik tahlil usullaridir. Statistik tadqiqotlar yordamida iqtisodiy o‘sish dinamikasi, aholi bandligi, sanoat ishlab chiqarishi, inflyatsiya darajasi kabi muhim ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Shu sababli, iqtisodiyotni rivojlantirishda statistik tadqiqotlar asosiy vositalardan biri sifatida keng qo‘llaniladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ma'lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash, deskriptiv statistika, regressiya va korelatsiya tahlili, prognozlash usullaridan foydalanildi.